

## QISHLOQ XO'JALIGIDA ELEKTR QURILMALARIDAN FOYDALANIB ELEKTR ENERGIYASINI TEJASH TADBIRLARINI ISHLAB CHIQUISH

**Nishanbayeva Maftuna Paxriddinova**

*Termiz shahar kasb-hunar maktabining  
maxsus fan o'qituvchisi*

Iste'mol madaniyati – mahsulotlar va xizmatlarni xarid qilishda odam odobini boshqarish uchun belgilangan qoida va me'yorlar to'plamidir. Elektr energiyasi iste'mol madaniyati haqida gap ketganda, avvalo “svet” haqini o'z vaqtida to'lab borish tartibini tushunar edik.

So'nggi statistik ma'lumotlarga qaraganda, respublikaning har 100 xonadoniga 153 dona televizor, 102 dona sovitkich, 34 dona konditsioner, 54 dona changyutgich, 80 dona kir yuvish mashinasi, 246 dona telefon va 49 dona kompyuter to'g'ri keladi. Mana shunday elektr texnika buyumlarini qanday ishlatish bilan elektr energiyasi sarfini ko'payib ketishi yoki kamayishi kuzatilmoqda.

“Elektr energiyasi sarfini kamaytirishda amal qilib kelayotgan qoidalar bilan bir qatorda, shu kungacha biz jiddiy e'tibor bermagan, demak amal qilmagan, endi esa iste'mol madaniyatimizda kundalik me'yorga aylanib borayotgan tejamkorlik ham muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlashimiz to'g'ri bo'ladi.

Iste'molchilarga to'satdan energiya uzilganda korxonaning ishlab chiqarish dasturi zarur keladi. Qishloq xo'jaligida bunday istemolchilarga kichikroq chorvachilik va fermalar teplitsa kombinatlari ozuqa tayorlash zavodlari sexlar kortoshka loviya saqlash omborlari (hajmi 500tdan ortiq bo'lib sovitish va havo almashtirish qurilmalari ) energiyani to'xtatilishi 0,5soat (eng muhim qurilmalar) 4soatdan oshmasligi kerak.

Elektr tarmoqlari va elektr qurilmalarida quvvat hamda energiyani isroflarini kamaytirish va liniya va transformatorlarda quvvat, energiya isroflarini aniqlash. Liniyada elektr energiyani yo'qolishlarini kamaytirishning asosiy yo'llari:

Simlarning ko'ndalang kesimini to'g'ri tanlash. Tanlangan simlarda keltirilgan harajatlar minimum bo'lishi kerak.

–yuqoriroq kuchlanish qo'llash masalan 6kV o'rniga 10 kV.

–ikki tarmoqli (dvuxsepnaya) liniyalarda parallel ishlash rejimini qo'llash:

–reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish.

Transformatorlarda elektr energiyani yo'qotishlarini kamaytirish:

Mavsumiy ravishda transformatorlarni istemolchilar ishlamagan paytda o'chiradi.

Masalan: Oktabrdan – fevralgacha sug'orish mavsumi to'xtaydi. Ish to'xtagan paytda sug'orish uchun ishlatiladigan transformatorlarni o'chirib qo'yish uchun dispetchirlarga ro'yhat qilib beriladi. Salt ishlash va cho'lg'amlaridagi quvvat yo'qolishidan saqlash. Sug'orish uchun ishlatiladigan juda katta quvvatli

transformatorlardan foydalanishadi bu esa ortiqcha elektr energiya sarf bo'lishiga olib keladi 150A li tayanch bor liniyani 5 kunlik remontga chiqarilsa 1-liniyani ishini 2-liniya 300A li ish bajarishi orqali quvvat isrofi yuzaga keladi. Remontni iloji boricha muddatidan yani ertaroq 4kunda tugatilsa yana darhol ulansa 1 kunlik quvvatni isrofidan saqlanadi. Demak, chiqarilayogan qurilmalarni remont vaqtini qisqartirish orqali quvvat tejayapti. Quvvatni ortiqcha yuklama bilan ishlayotgan transformatorlarni quvvati kattaroq transformatorga almashtirish orqali amalga oshirish mumkin. 6,3MVA-10MVA lik bilan almashtirish. Tuman podstantsiyalarida yuklama minimal bo'lgan rejimda ikkita transformatorlardan bittasini uzib qo'yish

-transformatorlarni yuklamasiz rejimda ishlashga yo'l qo'ymaslik.

Yoritish sarflanuvchi elektr energiya yo'qolishlarini kamaytirish umumiy iste'mol etilgan energiyaning 10% gachasi yoritish uchun sarflanadi. Elektr energiyani isrof bo'lganligi uchun quydagi choralar ko'rilishi kerak:

-tabiiy yorug'likdan to'la foydalanish, oynalarni toza holda saqlash:

-yoritish atmosferasini va lampalarni tozalab turish:

-yoritish manbalarini o'z vaqtida elektr tarmog'idan uzish:

-elektr energiyani ozroq iste'mol etuvchi, ko'proq yorug'lik beruvchi lampalar qo'llash orqali(masalan: lyumenesent lampalar): zamonaviy muqobil lampalar svetodiodlar,"LED BULB HIGH POWER" lampalaridan amalga oshirish mumkin.

Elektr energiyasini tejashning oddiy, ammo samarali usullari bilan tanishib chiqing.

1. Kundallik xatti-harakatlaringizni o'zgartiring
2. Lampochkalarni almashtiring
3. Qurilma ishlatilmaganda elektr simini tarmoqdan uzing
4. A+ toifali maishiy texnika

Elektr energiyasi o'rtacha O'zbekiston fuqarosining uy-joy kommunal xo'jaligi xarajatlarining katta qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga, bu xarajatlarni kamaytirish unchalik qiyin emasligini hamma ham bilmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov A.S., Mirhaydarov M.M. Nazariy elektrotexnika. T., „ 0 'qituvchi“, 1979.
2. Rahimov G. R. Elektrotexnika. T., „ 0 'qituvchi“, 1966.
3. Majidov S. Elektrotexnikadan ruscha-o'zbekcha lug'atspravochnik. T., „ 0 'qituvchi“, 1985.
4. Karimov A.S., Mirhaydarov M.M. va b. Elektrotexnika va elektronika asoslari. Texnika oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. T., „ 0 'qituvchi“, 1995.
5. Azizov A. A. PyccKO-y36eKCKHh KpaTKMH cjiOBapb. T., „ 0 'qituvchi“, 1989.
6. Xoldorova S.M., Doniyorov R., Usmonova A.A. Ruscha-o'zbekcha o'quv lug'ati. T., „ 0 'qituvchi“, 1984.

7. Морозов А. Л. Справочник по электротехнике и электротехническим материалам. М., «Высшая школа», 1987.
8. Rojkova L.D., Kozulin V.S. Stansiya va podstansiyalarning elektr asbob-uskunalari. T., «O'qituvchi», 1986.
9. Karimov A. S. va b. „Elektrotexnika va elektronika asoslari“ (Programmallashtirilgan savollar va masalalar to'plami), T., «O'qituvchi», 1978.
10. Qisqacha politexnika lug'ati. O'zbek ensiklopediyasi bosh tahririyati. T., „Fan“, 1992.